Sam.DVMCHB universiteti, Zooinjeneriya fakulteti, "Xususiy zootexniya" kafedrasi dotsenti v.b., q.x.f.f.d. (PhD) X.A.Mamatovning 5410600 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi, 3 – bosqich talabalari uchun "Baliqchilik" fanidan "Baliq chovoqlarini o'stirish va parvarishlash" mavzusida tayyorlangan ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

Muallif tomonidan 5410600 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi, 3 – bosqich talabalari uchun "Baliqchilik" fanidan "Baliq chovoqlarini o'stirish va parvarishlash" mavzusiga tayyorlangan ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi talabalarda embrion davri, embriondan keyingi, lichinka davri, malk davrlarini rivojlanishini va yashash tarzi to'g'risidagi bilim va tasavvurni shakllantirish ko'zlangan. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun ma'ruza ishlanmasida: ikralarning va yosh baliqlarning urchitish hovuzlaridagi rivojlanishi, malklarni urchish hovuzlaridan o'stiradigan hovuzlarga o'tkazish hamda malklarni sanash usullari va ularni oziqlantirish texnologiyalaridan foydalanib, tovar baliq darajasigacha yetkazib, o'ziga xos xususiyatlari kabi o'quv elementlari pedagogik vazifalar orqali yoritish berish belgilangan.

"Baliq chovoqlarini o'stirish va parvarishlash" mavzusiga tayyorlangan ma'ruza mashg'ulot ishlanmasi o'z tuzilishiga ko'ra titul varag'i, o'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiayasi, o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi, B.B.B. texnikasi jadvali, tayanch iboralar, ma'ruza matni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, ma'ruza mashg'ulot ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri tayyorlangan. U o'zining mazmun va mohiyati, qo'llaniladigan o'qitish uslubi va texnikasi, o'qitish vositalari, o'qitish shakli, o'qitish shart-sharoiti ma'ruza mashg'uloti mavzuni ochib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda tayyorlangan ishlanmani dars jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

"Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi va zoogigiyena" kafedrasi mudiri, q.x.f.f.d (PhD) dotsent v.v.b ---------- **B.X.Djambilov**

Sam.DVMCHBU Zooinjeneriya fakulteti, "Xususiy zootexniya" kafedrasi katta o'qituvchi, q.x.f.f.d. (PhD) X.A.Mamatovning 5410600 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi, 3 – bosqich talabalari uchun "Baliqchilik" fanidan "Baliq chovoqlarini o'stirish va parvarishlash" mavzusida tayyorlangan ma'ruza mashg'uloti ishlanmasiga

TAQRIZ

"Xususiy zootexniya" kafedrasi katta o'qituvchisi X.A.Mamatov tomonidan 5410600 – Zooinjeneriya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi, 3 – bosqich talabalari uchun "Baliqchilik" fanidan "Baliq chovoqlarini o'stirish va parvarishlash" mavzusiga tayyorlangan ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi tuzilishiga ko'ra titul varag'i, o'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiayasi, o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi, B.B.B. texnikasi jadvali, tayanch iboralar, ma'ruza matni, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan tuzilgan. Bu ishlanmada asosiy maqsad embrion davri, embriondan keyingi, lichinka davri, malk davrlarini rivojlanishini va yashash tarzini yoritib berish bo'lib, bunda ikralarning va yosh baliqlarning urchitish hovuzlaridagi rivojlanishi, malklarni urchish hovuzlaridan o'stiradigan hovuzlarga o'tkazish hamda malklarni sanash usullari kabi o'quv elementlari keltirilgan. Bu o'quv elemetlari talabalarga ma'ruza, BBxB, blits – so'rov, bayon qilish, klaster, "xa-yo'q" singari o'qitish uslubi va texnikasidan foydalanish ko'zlangan.

Muallif o'quv mashg'uloti texnologik xaritasining kirish qismida mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar ma'lum qilishini; asosiy qismda bo'lsa talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol - javob o'tkazilishi; va boshqa ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilishi keltirilgan. Yakuniy qismda talabalar e'tiborini asosiy masala ko'rsatkichlarini anglab olishlari va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantirish ko'zlangan.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, ma'ruza mashg'uloti ishlanmasi uslubiy jihatdan to'g'ri yozilgan. U o'zining mazmun va mohiyati, qo'yilgan masalalarning yoritilishi bilan dars mavzusiga mos keladi. Mazkur ishlanmani dars jarayonida foydalanishni tavsiya etaman.

Samarqand veterinariya meditsinasi texnikumi direktori, professor **S.R.Bozorov**